

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ”** (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир ҳайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Носиров Ш.Ў – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгардир*

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

oftomo‘billari va yo‘lchi arobalar kelturilibdur. Ushbu yo‘l uchun janobi oli Buxoro amiri hadiya qilgon saroy muqif qilinodur. Ushbuni ta’mir uchun 27,000 so‘m aqcha ta‘yin qilinibdur”¹. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda, XX asr boshlarida Buxoro hududida mehnatga haq to‘lashning qiymatini bilib olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Buxoroning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishda “Oyina” jurnali muhim o‘rin tutadi. Maqolalarni tahlil qilish orqali tarixiy jarayonlar hamda unga sababchi bo‘lgan omillar ma’lum darajada o‘rganish mumkin. Bugunga qadar tarixchilar, tilshunoslar va adabiyotchilar tomonidan “Oyina” jurnalidagi maqolalarning o’n foizi joriy imloga o‘girilgan bo‘lib, uni to’liq tadqiq qilish olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Buxoro amorati // “Oyina” jurnali. 1915. 2-yil 6-son. 375 – 380 - betlar.
2. Buxoro xabarlari // “Oyina” jurnali. 1913. 9-son. 218 – 219 - betlar.
3. Buxoroda muhim qaror // “Oyina” jurnali. 1913. 10-son. 245 – 246 - betlar.
4. Buxoroda milliy teyotr // “Oyina” jurnali. 1914. 22-son. 326 - bet.
5. Buxoroda to‘ylar // “Oyina” jurnali. 1913. 6-son. 141 – 142 - betlar.
6. Buxoroning Sherobodidan maktub // “Oyina” jurnali. 1914. 17-son. 303 - bet.
7. Buxoro temur yo‘li // “Oyina” jurnali. 1914. 31-son. 615 - bet.

BUXORO AMIRLIGI TARIXINI O‘RGANISHDA MAHALIY MATBUOT NASHRLARINING AHAMIYATI

Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
s.u.nosirov@buxdu.uz

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tarixini o‘rganish masalasi yanada mukammalroq ravishda va o‘z navbatida manbalar asosida xilma-xil shakllarda bir yoqlamatiklar qochish va manbalar tahlili asosida amalga oshirish kun tartibida turibda. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida madaniy me’rosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish to‘g‘risida aniq istiqbolli rejalar belgilanganligi ham gaoimizga isbot bo‘la oladi.

Buxoro amirligi tarixini ob‘yekтив jihatdan yoritish masalasi tarixning eng muhim va keng ko‘lamli holatda amalga oshirilayotgan tadqiqot doiralaridan biri hisoblanadi. Bunda tariximizga oid me’roslarni ilmiy o‘rganish va ularni ommalashtirish maqsadida matbuot sahifalari to‘liq ravishda tarixni hikoya qiluvchi manbalar qatoridan o‘rin olishi lozimligini tushunish mumkn bo‘ladi. Buxoro amirligi tarixi mahaliy matbuot sahifalarida yetarli darajada yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Matbuotning tarixni o‘rganishdagi ahamiyati haqida gapirar ekanmiz avvalo mashhur jadid ma‘rifatparvari Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning quyidagi fikrini keltirib o‘tish lozim. “Eski vaqtarda: “Matbuot yettinchi davlatdir” derlar edi. Bu so‘z, bu da’vo endi-da ahamiyatini yitirmabdir. Bu kunda-da matbuotning ahamiyati buyukdir”.

Buxoro amirligi tarixini o‘rganish bilan bog‘liq manbalar orasida matbuot materiallarining o‘rni juda yuqori hisoblanadi. Matbuot sahifalarida amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va hattoki siyosiy mavzularda to‘la to‘kis va har xil qarama qarshi fikrlarga to‘la fikrlar bayon etilgan. Jumladan, Buxoro amirligining doimiy amalga oshirilib borilayotgan islohotlari va hattoki amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ham hech ikkilansmasdan berib borilgan.

Jumladan jadidlar gazetasi hisoblangan “Buxoroyi sharif” gazetasi Kogon shahrida 1912-yil 11-martdan 1913 yil 2-yanvargacha tojik tilida chiqqan. Gazeta dastlab haftasiga 6-marta,

¹ Buxoro temur yo‘li // “Oyina” jurnali. 1914 yil 31-soni. 615 - bet.

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

keyin 3-marta nashr etilgan. Jami 153 soni chiqqan. „Buxoroyi sharif“ 1913-yil 12-yanvarda Rossiya bosh siyosiy boshqarmasi tomonidan taqiqlangan. Gazetaning tugatilishi haqida Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon quyidagicha izoh beradi, “Buxoroda forscha “Buxoroi sharif”, o‘zbekcha “Turon” gazetalari chiqdi. Avvalgisining muharriri kofqosiyali bir yozuvchi edi (agar yanglishmasam, Jalol Yusufzoda edi). Bular har ikkisi ikki-uch oy qadar davom etgandan so‘ngra, Buxoro rus siyosiy agentining hiyla va dasisalari ila Buxoro hukumati tarafindan bekitildi”.

Ushbu gazetaning saxifalaridagi maqolarda orasida islomiy ahkomlar, ilm-fan, tijorat hamda iqtisodiyot yangiliklari, ma‘rifatni targ‘ib etuvchi maqolalarni ko`rish mumkin. „Buxoroyi sharif“da mahalliy shoir va yozuvchilar asarlaridan parchalar, jahon adabiyoti namunalari e’lon qilingan. „Buxoroyi sharif“ga ozarbayjon yozuvchisi va jurnalisti Mirzo Jalol muharrirlik, Mirzo G‘affor bosh kotiblik qilgan. E’tiborlisi Buxoro amirligi hududiga ushbu matbuot nashrlarining kirib kelishi asosan chet o‘lkalardagi ziyolilar tomonidan amalga oshirilgan, lekin ularning moliyaviy asosini mahaliy mulkdor ziyolilar tashkil etgan.

Gazeta „Tarbiyai atfol“ (1910-yilda Buxoroda mahaliy mulkdorlar tomonidan asos solingan) jamiyati a’zolari bo‘lgan Muhiddin Mansurov hamda Mirza Siroj Hakimlarning tashabbusi bilan tashkil etilgan. Gazeta rahbari Rossianing Buxorodagi siyosiy agentligida tarjimon vazifasida ishlayotgan Mirhaydarxo‘ja Mirbadalov bo‘lgan. Ro‘znomaning birinchi soni 1912-yil 11-martda Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida bosmada chiqqan. Gazeta chop etilganda tarkibi 4 sahifadan iborat bo‘lgan. 1-betda muharririyat maqolasi, jahon va O‘rta Osiyodagi yangiliklar, tafsilotlar aks etgan. Ushbu gazetaning aholi orasida chet o‘lkalar haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllanishiga olib kelgan. 2- va 3-sahifalarda esa taniqli yozuvchilarning asarlari tarjimalaridan namunalar va unga tahririyatning munosabati, jahon adabiyotidan namunalar, publisistik maqolalar chop etilgan. Bundan ko`rinib turibdiki, ushbu gazetadagi bosib chiqarilgan maqolalar aholi orasida tezda yangicha qarashlar va tushunchalarning kirib borishiga olib keladi. Oxirgi sahifada asosan bildirishlar, e’lonlar, savdo do‘konlari manzillari deyarli har bir sonda bosilgan. Gazetada Mirzo Siroj Hakim va Sadriddin Ayniy o‘zlarining publisistik maqolalari bilan doimiy qatnashgan.

Buxoro amirligi hududida nashr etilgan birinchi gazetalar „Buxoroyi sharif“ va „Turon“ amirlikda milliy demokratik g‘oyalarni targ‘ib qilish, savodxonlikni oshirish orqali asriy qoloqlikdan qutulish kabi mavzulardagi targ‘ibotchilik ishida, Buxorodagi jadidlarni birlashtirishda o‘rnii katta bo‘lgan.

Ushbu nashrlar kam sonli obunachilarga ega bo‘lganligi sababli chop etishdagি xarajatlarni qoplamagan. Dastlab homiylik qilganlar va bosmaxona rahbariyati ham moddiy manfaat bo‘Imagach, nashr ishlarini to‘xtatishga harakat qilgan. Moliyaviy tanglik munosabati bilan K. Levinning tipografiya firmasi gazeta chiqarishni to‘xtatadi. Shunday vaziyatda jadidlар „Buxoroyi sharif“ shirkatini tuzadilar va gazetalar chiqishini ta’minalash uchun pul yig‘a boshlaydilar. Nashr ishlarida M. Mansurov barcha xarajatlarni o‘z zimmasiga olgan. Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev ham „Tarbiyai atfol“ tashkiloti faoliyatida va ro‘znomalarning nashr bilan bog‘liq xarajatlarda o‘z yordamini ayamagan.

Shuningdek, Buxoro amirligida nashr etilgan va amirlik hayoti bilan bog‘liq jarayonlarni yoritib borgan yana bir matbuot sahifasi „Turon“ nomi ostida Buxoro jadidlari tomonidan chiqarilgan. Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida 1912-yil 14-iyuldan 1913-yil 2-yanvargacha o‘zbek tilida dastlab haftasiga 2 marta, so‘ngra 3 marta nashr qilingan. Jami 49 soni chop etilgan. „Buxoroyi sharif“ gazetasi bilan birgalikda, Rossiya imperatorligining Buxorodagi siyosiy agentligi tomonidan taqiqlangan. Gazeta sahifalarida Buxoro amirligidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot tasvirlangan, amirlikda islohot o‘tkazish zaruriyati ta’kidlangan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, „Turon“ faqat Buxoro mamlakatida emas, butun Turkistonda shuhrat qozongan. Gazetani moddiy jihatdan yirik savdogar Muhiddin Mansurov va ma‘rifatparvar Siroj Hakim qo‘llab-quvvatlab turgan. Bu gazeta ham yuqorida ta’kidlanganidek mahaliy mulkdorlarning moddiy ko‘mag‘i yordamida yaratilgan. Gazetani g‘oyaviy jihatdan

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

„Tarbiyai atfol“ jamiyatni boshqargan. „Turon“ga buxorolik G‘iyos maxsum Husayniy muharrirlik qilgan.

Buxoro amirligidagi maktab va madrasa ta’limi bilan bog‘liq holatlar, sohani isloh qilishga xayrixoh bo‘lgan bir qator shaxslarning o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan maqolalar Yangi Buxoroda nashr etilgan “Turon” gazetasida berilgan. Jumladan gazetaning 1912-yil 10-avgustida Kamol No‘g‘ayning “Makrab va madrasa”, G‘iyosiddinining “15-avgust” nomli maqolalari e’lon qilingan bo‘lib unda Buxoro amirligidagi ta’lim tizimi eski holatda qolib ketganligi, ta’lim faqatgina diniy asosda tashkil etilayotganli, dunyoviy fanlarga juda kam o‘rin ajratilayotganli to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek Buxoroning tarixda ilm-fan beshigi bo‘lib kelganligi, buni yana qayta takrorlash mumkinligi ammo buning uchun tartibli va tadrijiy ravishda ta’lim islohotini amalga oshirish lozimligi ta’kidlanadi.

Buxoro amirligi tarixiga oid bo‘lgan matbuot sahifalari yuqorida ta’kidlangan gazetalardan iborat bo‘lib qolmay, Turkiston o‘lkasining boshqa hududlarida nashr etilgan gazetalarda ham Buxoro amirligi tarixinining deyarli barcha jahbalariga tegishli ma’lumotlar uchraydi. Ulardan Samarqandda nashr etilgan “Samarqand”, “Hurriyat”, Toshkentda nashr etilgan Sadoi Turkiston”, Farg‘onada nashr etilgan “Sadoi Farg‘ona” gazetalarida va Samarqandda nashr etilgan “Oyina”, Toshkentda nashr etilgan “Al-Isloh” jurnallarida maqolalar doimiy ravishda berib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
2. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Т: Академия, 2000.
3. Жамолова Д. Бухоро амирлигига жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). –Т: 2021.
5. Темиров Ф. Садриддин Айнийнинг Туркистон миintaқасидаги ижтимоий-маданий ҳаётда тутган ўрни ва илмий мероси. –Бухоро, 2023.
6. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. К. Раҳмонов. Бухоро Ҳалқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. Toshkent „Abu matbuot-konsalt“ 2012.
8. Sadriddin Ayniy, Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, M., 1926.

**XIX ASRNING OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASI SUV
XO‘JALIGIDA SARFLANGAN XARAJATLARNING TARIXIY-MANBAVIY TAHLILI**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch-doktoranti

Bobodustov Bobur Mirzoboyevich

E-mail: bobur.b.88@mail.ru tel. +99893 998-81-11

Rossiya imperiyasi hukumatining Turkiston o‘lkasidagi agrar siyosatini asosisi maqsadlaridan biri bo‘lgan paxta xom ashyosini yetishtirishni ko‘paytirish va tovar sifatida uni tashib ketishdan iborat bo‘lgan. Paxtachilikni rivojlanishi bilan o‘lkada sug‘orish tizimi va yerlarning meliorativ holatini muntazam yaxshilash zarurati kelib chiqdi. Bu kabi holatlar Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkiston o‘lkasida mavjud yer-suv munosabatlarini o‘rganishni talab etar edi. Shu maqsadda mustamlaka ma’murlari bir qator o‘lka tarixini o‘rganishga oid chora tadbirlarni amalga oshirdi.

Bu Zarafshon vohasining suv xo‘jaligi tarixi yangi bosqich bo‘lib, uning suv resurslarini va irrigatsiya tizimlarini ilmiy jihatdan o‘rganish hamda uning suv ta’minotini yaxshilash yo‘lida dastlabki sug‘orish ishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Imperiya ma’muriyatining Turkistondagi siyosati arzimagan harkatlar hisobiga o‘lkadan imkonli boricha ko‘roq foyda olish edi.

XX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyoning turli vohalarida sug‘orma dehqonchilik va sug‘orilish tizimining kelib chiqishi hamda qadimgi sug‘orilgan yerlarning tabiiy sharoitlariga

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

| | |
|--|-----|
| У.Муродуллаев. ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИДА МАНГИТЛАР СУЛОЛАСИННИНГ ЎРНИ | 217 |
| Максуд Бешимов. АЙНИЙ ВА МУНЗИМ | 219 |
| Г.Нормуродова, О НЕКОТОРЫХ ИЗМЕНЕНИЯХ В СОЦИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (<i>КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА</i>) | 221 |
| Feruza Sharopova, A'zam Boltayev. BUXORO AMIRI KOLLEKSIYASINING TAVSIFI | 225 |
| Исмат Нусратиллоевич Наимов. БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚОЗИ МАНСАБИ ВА ХИЗМАТ ФАОЛИЯТИ ЙЎНАЛИШЛАРИ | 228 |
| Baxtiyorov Behruz Bobirovich. SOVET DAVRI MANBALARIDA BUXORO AMIRLIGINING BOSIB OLINISHI MASALALARINING YORITILISHI..... | 232 |
| Гулирухсор Темирова. XX АСР БОШЛАРИГА ОИД ЁЗМА МАНБАЛАРИДА БУХОРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ВА МАДАНИЙ ҲАЁТИ..... | 234 |
| Ғаниев Камолиддин. БУХОРО АМИРЛИГИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТИ ТАҲЛИЛИ (Ахмад Доңишнинг “Рисола, ёхуд Мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи” асари асосида) | 236 |
| Musinova Aziza Sadikovna. BUXORO KANDAKORLIK SAN'ATIDA NAQSH VA KOMPOZITSIYA | 239 |
| Inoyatova Mohinur Mirzobek qizi, Utayeva F.X. TURKISTON DAVRIY MATBUOTIDA IJTIMOIY JARA YONLARNING YORITILISHI | 243 |
| B.G‘. Rasulov. F.K.GIRS TAFTISH HISOBOTLARIDA ZARAFSHON OKRUGINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZIMINING AYRIM JIHATLARI..... | 244 |
| Tal'at Halimov. BUXOROLIK SAXOVATPESHA VA XALQ HOMIYSI CHORIQULBOY | 246 |
| G.R. Ostonova. POYI KALON ME`MORIY ANSAMBLI TARIXI..... | 249 |
| Рахимджанова Нигора. БУХОРО АМИРЛИГИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯ ВА САФАРЛАР ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ-XX АСР БОШЛАРИ) | 252 |
| Mahmuda G‘oyibnazarova. BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY JARA YONLAR (“OYINA” JURNALI MAQOLALARI ASOSIDA)..... | 256 |
| Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI O‘RGANISHDA MAHALIY MATBUOT NASHRLARINING AHAMIYATI | 259 |
| Bobodustov Bobur Mirzoboyevich. XIX ASRNING OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASI SUV XO‘JALIGIDA SARFLANGAN XARAJATLARNING TARIXIY-MANBAVIY TAHLILI..... | 261 |
| Qilichev R.E. BUXORO AMIRLIGIDA METALLSOZLIK | 264 |
| Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI YORITISHDA “TURON” GAZETASINING O‘RNI..... | 266 |
| Orziyev M.Z., Zayniyev K.M. O’RTA OSIYADA INGLIZ-RUS RAQOBATINING AFG’ONISTONDAGI MIGRATSIIYA JARAYONLARIGA TA’SIRI | 268 |
| Parmonov Sharofiddin Shavkatovich. VASSAL BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SHAHRISABZ BEKLIGI | 271 |
| Irgashov Xusniddin Nuridin o‘g‘li, Normatov Otobek Maxamatjonovich. BUXORO AMIRLIGIDA “YANGI USUL” MAKTABLARINING OCHILISHI VA ULARNING MINTAQADAGI FAOLIYATI | 274 |
| M.B.Misaboyeva, Normatov Otobek Maxamatjonovich. YOSH BUXOROLIKLAR HARAKATI TARIXIDAN | 276 |
| Махмуд Ҳамраев. АМИР ОЛИМХОННИНГ ИНГЛИЗ ҚИРОЛИГА МАКТУБИ..... | 280 |
| J.X.Arziqulov. BUXORO TADBIRKORLARINING KO‘RGAZMA VA YARMARKALARDAGI ISHTIROKI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA) | 282 |
| Bayramova Nodira. BUXORO XONLIGIDA, XAYRLI KASALLIK” NOMINI OLGAN „RISHTA” VA | 284 |